

GLOBAL BOSHQARUV XXI ASRDA: XALQARO TARTIBOT VA XALQARO INSTITUTLARNI REKONSTRUKSIYA QILISHGA BO‘LGAN EHTIYOJ.

*Yusufjonov Bahrom Yo‘ldoshovich,
ilmiy izlanuvchi, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya Hammamizga ma‘lumki xalqaro maydonda siyosiy inqirozlar, xalqaro siyosatda davlatlar o‘rtasidagi ishonch susayishi, global mavqega ega bo‘lgan institutlar legitimligining pasayishi insoniyatning barqaror rivojlanishiga tahdid solmoqda. Bu muammolarga yechim topish uchun esa dastlab universal tashkilotlarni modernizatsiya qilish va ularning faoliyatini 21-asrning rivojlanib borayotgan o‘ziga xos iqtisodiy-siyosiy muhitiga monand ravishda tashkillashtirish lozim. Ushbu maqolada yuqorida aytib o‘tilgan dilemmalarning kelib chiqishi, xalqaro tartibotning bugungi ko‘rinishi, dolzarb masalalar yechimida xalqaro tashkilotlarning o‘rni va ularning yechimiga qaratilgan alternativ variantlar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: xalqaro institutlar, xalqaro boshqaruv tartiboti, xalqaro hamjamiyat, veto huquqi, legitimlik, vakillik tizimi

Hozirgi davrning jiddiy masalalari, dunyoning jadal globallasuvi, ommaviy va yadroviy qurollarni cheklashga qaratilgan shartnoma shartlarining bajarilmasligi, ekologik inqirozlar, immigratsion muammolar, davlatlarning xalqaro maydondagi disintegratsiyalashuvi, g‘oyaviy va diniy konfliktlarning kelib chiqishi, xalqaro huquq va tashkilotlarga bo‘lgan ishonchsizlikning ortib borishi va shunga o‘xshagan dolzarb muammolar xalqaro maydonda tartibsizliklarning kelib chiqishiga, kollektiv hamkorlikning kuchsizlanishiga va ularning inson nazoratidan chiqib ketishiga sababchi bo‘lmoqda (kissenjer world order) [1]. Buning ustiga aslida xalqaro faoliyatni, hamkorlikni tartibga solishi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ekologik tahdidlarni olishi kerak bo‘lgan xalqaro institutlar esa o‘zining disfunktsional faoliyati natijasida vaziyatni yanada yomonlashtirmoqda. Bu muammolarga yechim topish va vaziyatni yumshatish uchun jahon hamjamiyati xalqaro boshqaruv asoslarini, xalqaro

tartibotni va xalqaro institutlar faoliyatini modernizatsiya qilishda kollektiv va tezkor ravishda o'z xarakterlarini amalga oshirishlari lozim. Bu o'rinda islohotlarni qamrov jihatidan xalqaro universal tashkilotlar: UN, (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), uning UNSC (Xavfsizlik kengashi), WB (Jahon banki), IMF (Xalqaro valyuta fondi), G8 (Katta sakkizlik: AQSH, Kanada, G'arbiy Yevropa va Yaponiya) ning ichki faoliyatidan boshlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu tashkilotlarning xalqaro maydonda qamrov jihatidan ham, ta'sir jihatidan ham o'rni sezilarlidir. Shuningdek bu tashkilotlardagi vakillik tizimini va vakolatlarni taqsimlashni rivojlantirish orqali teng imkoniyat va vakolatlarga asoslangan ko'p qutbli dunyo tartibotini shakllantirish mumkin.

XALQARO TARTIBOT o'zi nima?

Princeton universiteti ensiklopediyasiga ko'ra (Encyclopedia Princetoniensis, author: Richard Falk) Dunyo tartiboti atama sifatida ba'zan tahliliy, ba'zan esa ko'rsatma sifatida ishlatiladi. Ikkala qo'llanish ham global miqyosda siyosiy hayot haqiqatlarini tushunishda muhim maqsadlarga xizmat qiladi. Analitik nuqtai nazardan, dunyo tartibi xatti-harakat uchun asosni ta'minlaydigan kuch va hokimiyatni tartibga solishni anglatadi. Global miqyosdagi diplomatiya va jahon siyosatining ma'nosi. Ko'rsatmalarga ko'ra, dunyo tartiboti tinchlik, iqtisodiy o'sish va tenglik, inson huquqlari, atrof-muhit sifati va barqarorligi kabi qadriyatlarni ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lgan hokimiyat va hokimiyatning afzal ko'rilgan tartibini anglatadi.[2]

Shunga qo'shimcha tarzda aytishimiz mumkinki, xalqaro tartibotning shakllanishida xalqaro institutlar faoliyati, ularning legitimligi faoliyat samaradorligi, xalqaro maydondagi xamkorlik masalalari, siyosiy va iqtisodiy trendlar ham katta ahamiyatga ega. Umuman olganda bu atama birinchi va ikkinchi jahon urushlaridan so'ng yuzaga kelgan siyosiy vaziyat, siyosiy institutlar va ularning natijasida paydo bo'lgan xalqaro siyosat mexanizmini tushuntirish asnosida yuzaga kelgan. Keyinchalik esa jahon siyosiy sahnasi **sovuq urush** davrida davrida ikki qutbli tartibot (AQSH va SSSR qaramaqarshiligi) va bir qutbli tartibotning (SSSR parchalangandan to yangi kuch markazlarining shakllanishigacha bo'lgan davrda AQSH ning yagona

global kuchga aylanishi) shoxidi bo'ldi. Hozirda esa ko'p qutbli dunyo tartiboti atamasi ko'p qo'llanilmoqda, lekin hozirgi vaqtda dunyo tartibotining tuzilisha anchagina murakkabdir. AQSH lik siyosatshunos olim Ian Bremmer ta'kidlashicha hozirgi davrda jahonda 3 xil dunyo tartiboti hukm surmoqda . Bular **xalqaro xavfsizlik, iqtisodiy va raqamli axborot** tartibotlardir [3]. Xalqaro xavfsizlik sohasida AQSH boshchiligidagi yevroatlantik blok (NATO) yetakchi kuch bo'lib kelmoqda . Bu tizimning faoliyati esa bir qancha muammolarga olib kelmoqda va ularning eng asosiysi kollektiv g'arb va Rossiya o'rtasidagi geopolitical ziddiyatlardir. Mana shu ziddiyatlar tufuayli xalqaro siyosatda ikki yoqlama standartlar shakllanayapti va ikki kuch o'rtasidagi kurash o'laroq xalqaro huquq normalari xususan ommaviy qirg'in qurollari to'g'risidagi (strategik qurollarni cheklash to'g'risidagi) shartnomalar o'zining legitimligini yo'qotmoqda. Iqtisodiy muhitga nazar boqsak, bu yerda nisbatan yetakchi actorlarning ko'pligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi . Masalan AQSH, Xitoy, Yaponiya, Yevropa ittifoqi iqtisodiy jihatdan eng katta o'yinchilar hisoblanadi va ularning qatoriga yana Hindiston, Pokiston, Braziliya kabi 10 dan ortiq mamlakat qo'shilishi mumkin. Lekin shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki yaqin davr ichida Xitoyning iqtisodiy jihatdan juda katta suratlarda o'sishi, Xitoy iqtisodiyotining AQSH iqtisodiyotiga yetib olishi va bazi jabhalarda undan o'tib ketishi hamda bu iqtisodiy yutuqlarning Xitoy tashqi siyosatiga ham jo bo'lishi natijasida AQSH ning Xitoyga bo'lgan qarashlari o'zgardi. Hozirda esa AQSH Rossiyadan ham ko'ra Xitoyni o'zining eng katta potensial raqibi sifatida ko'rmoqda va unga ta'sir o'tkazish uchun bir qancha yo'llardan va shu jumladan Taiwan masalasidan foydalanmoqda. Xalqaro tartibotning uchinchi kategoriyasisi esa bugunning actual masalasidir . Bugungi kunda insonlarni, jamiyatlarni axborot bilan ta'minlash, ularning qarashlari, o'y – fikrlarini shakllantirishda shubxasiz raqamli axborot industriyasining o'rni benihoya kattadir . Chunki postindustrial jamiyatda yashayotganimiz, iqtisodiyotning, siyosatning, ilm-fan, ijtimoiy hayotning axborotga bo'lgan muhtojligi, bizni bugungi kun axborotining asosiy driveri bo'lgan katta ijtimoiy tarmoqlar, korporatsialarga bo'lgan „ qaramligimiz” ni oshiradi. Natijada

esa davlatlarning axborot soxasini boshqarishga bo'lgan ishtiyoqi sezilarli darajada oshib bormoqda, zeroki axborotni boshqargan dunyoni boshqaradi. Ushbu 3 tartibotdagi bazi manfatlarning to'qnashuvi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidagi muammolarning asosiy sabablari bo'lib qolmoqda .


Xalqaro tashkilotlar (institutlar) tushunchasi nimani anglatadi ?

XALQARO TASHKILOTLAR. Davlatlarning yoki hukumat qaramog'ida bo'lmagan milliy jamiyat (assotsiatsiya)larining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika, madaniyat va shu kabi sohalarda umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan uyushmasi; davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning eng muhim shakllaridan biri. Xalqaro tashkilotlar XIX asrda vujudga keldi va Ikkinchi jahon urushidan keyin ko'plab tuzila boshladi. Hozirgi kunda Xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortiq bo'lib, ularning 300 tasi hukumatlararo tashkilotlardir. Xalqaro tashkilotlar o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, Xalqaro tashkilotlarning tuzilmasi, asosiy maqsad va tashkilot faoliyatining yo'nalishlarini belgilab beruvchi ta'sis hujjati (nizomi) bo'ladi; bunday tashkilotlar doimiy yoki vaqti-vaqti bilan faoliyat yuritadi; ko'p tomonlama muzokaralar va muammolarni muhokama qilish ular faoliyatining asosiy usuli hisoblanadi; qarorlar ovoz berish yoki konsensus yo'li bilan qabul qilinadi; qarorlar, odatda, tavsiyaviy kuchga ega bo'ladi. Hukumatlararo xalqaro tashkilotlar va xalqaro nohukumat tashkilotlar, shuningdek, umumjahon va mintaqaviy tashkilotlar farqlanadi. Mas., XMT, MAG ATE, BMT Xalqaro Sudi, BMT Qochoqlar ishi bo'yicha oliy komissari, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti va b. Xalqaro tashkilotlar tashkilot, ittifoq, jamg'arma, bank, agentlik, markaz va shu kabi nomlar bilan ataladi. O'zbekiston Respublikasi 50 dan ortiq nufuzli Xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi. Bular, Markaziy Osiyo Hamkorlik tashkiloti, Toshkent shartnomasi (ODKB), TurkSoy, Turkiy davlatlar ittifoqi va b [4]. Ko'rinib turibdiki xalqaro tashkilotlarning maqsad va vazifalari qamrovi jihatidan ancha kengdir va malum manoda ularning umumiy barqaror rivojlanishdagi o'rni kattadir.

Xalqaro tashkilotlar shu paytgacha katta yutuq va natijalarga erishganiga qaramasdan ayni damda ularning faoliyatida ayrim xató va kamchiliklar kuzatilmoqda. Hozirgi umum e'tirof etilgan tashkilotlarning ko'pchiligi 2-jahon urushining so'ngida bundan 80 yilcha ilgari tashkil etilgan, o'shandan buyon bu tashkilotlar XX asr ikkinchi yarmidagi dolzarb masalalar bo'lgan dekolonizatsiyalash, sovuq urushning yakuni, xalqaro xavfsizlik, ekologik xavflar va global qashshoqlik kabi muammolarni hal qilishda munosib faoliyat olib bordi. Biroq muammo shundaki, bu tashkilotlarning asosiy tamoyillari XX asrda qurilganidek, XXI asrning muammolari oldida ularning modernizatsiyaga muhtojligi bilinib qolmoqda [5]. Yuqorida aytib o'tilgan 3 xil dunyo tartiboti ham vaziyatni yanada chigallashtirmoqda. Buni esa biz xalqaro tashkilotlarning dolzarb masalalar ijobiy hal qilishdagi o'rni va samaradorligining pasayib borayotganida ko'rishimiz mumkin. Natijada esa bu tashkilotlarning xalqaro maydondagi nufuzi va legitimligi pasayib bormoqda. Xalqaro huquq va shartnomalarda ham mana shu yo'nalishdagi salbiy o'zgarishlarning guvohiga aylanyapmiz. Misol uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda markaziy rol o'ynasada, u juda cheklangan kuch vositalariga va global iqlim o'zgarishini oldini olish maqsadlariga jamoaviy darajada erishish uchun yetarli darajada chora tadbirlarga ega emas. Bundan tashqari xalqaro tashkilotlarga, umuman olganda xalqaro hamkorlikning bugungi kundagi faoliyati haqida insonlardagi taassurotlar unchalik ham yaxshi emas. Quyidagi statistika bunga dalil bo'lishi mumkin:

Figure I-2 DIRECTION OF THE WORLD

Percent saying "wrong direction"



Q9, N=4800, 400 per country Source: Original Figure: Stimson Center

G7 va BRICS mamlakatlari bo‘ylab so‘rov o‘tkazilgan odamlarning aksariyati (57%) dunyo noto‘g‘ri yo‘lga yo‘l olganini aytmoqda, bu esa jahon ishlari bo‘yicha keng tarqalgan tashvishlardan darak beradi (I-2-rasmga qarang). Faqat 30% dunyo to‘g‘ri yo‘l bilan harakatlanayotganini aytmoqda. . Negativ qarashlar so‘rovdagi 12 davlatning 10 tasida yana aholi orasida ustunlik qiladi. Eng g‘amginlari Italiya (77% noto‘g‘ri yo‘nalish), Janubiy Afrika (72%), Frantsiyada (71%). Ko‘pchilik Shimoliy Amerikada (AQSh 60%, Kanada 69%) va boshqa Evropa mamlakatlarida ham shunga o‘xshash qarashlarga ega odamlar bor [6]. Albatta bu fikrlarning shakllanishida xalqaro siyosatdagi joriy vaziyat va global tashkilotlarning bu keskinliklarni shakllantirishdagi hissasi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Shuningdek xalqaro tashkilotlar ayni damda jahon miqyosidagi muhim masalalarni yechishda yakuniy qarorga ega emas, ya‘ni ko‘p holatlarda bunday masalalar katta siyosiy aktorlarning manfaatlariga mos ravishda yechim topmoqda . BMT ning Xavfsizlik kengashi bunga yorqin misoldir . Xavfsizlik kengashidagi besh doimiy a‘zoning veto huquqi anchagina og‘riqli mavzu hisoblanadi, negaki bu davlatlar veto huquqini ko‘pincha o‘z manfaatlarini yo‘lida ishlatadilar. Ana shu yerda veto huquqi nimaga kerak, kerak bo‘lsa veto huquqini boshqa davlatlarga ham berish kerakmi degan savollar tug‘iladi. Veto

huquqining yana boshqa davlatlarga berilishi vaziyatni yaxshilab qolmaydi . Chunki har mintaqadan bir vakilga veto huquqi berilganda ham, har bir vakilning manfaatlarini himoya qilishga hech kim kafolat bermaydi . Bu o‘rinda Bosh Assambleyaning nufuzini ko‘tarish va masalalarni ana shu yerda har bir vakilning ishtiroki va teng huquqi asosida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bugungi kunga kelib dunyo katta muammolar bilan yuzma – yuz turgan paytda besh doimiy a‘zoning dunyo taqdirini hal qilishi adolatsizlik va Rejeb Tayyip Erdog‘an aytganidek odil va barqaror rivojlanishdagi dunyoni shakllantirishda barcha davlatlar mas’uldirlar [7] .Umuman oladigan bo‘lsak UN (Birlashgan millatlar tashkiloti) va UNSC (Xavfsizli kengashi) da uchraydigna bunday kamchiliklar boshqa xalqaro tashkilotlar WB (Jahon banki), IMF (Xalqaro valyuta fondi), WTO (Jahon savdo tashkiloti) da ham ko‘rinib turibdi . Xalqaro tashkilotlarda barcha azo vakillar ana shu tashkilotning ichki ishlarida va tashkilot o‘z oldiga yechimini topishni maqsad qo‘ygan masalarni hal qilishda bir xil vakolatlarga, imkoniyatlarga ega bo‘lishi shart. Lekin yuqorida ko‘rinib turibdiki, xalqaro tashkilotlarning faoliyatida prinipial kamchiliklar mavjud, bu tashkilotlarda asosiy rolni ta’siri katta bo‘lgan davlatlar o‘ynamoqda, natijada kichik davlatlarda o‘z huquq va imkoniyatlarini himoya qilish uchun deyarli imkoniyat qolmayapti. Muammoning yana bir tomoni shundan iboratki, global institutlarning jiddiy muammolarga yechim topa olmayotgani qatorida, ularning legitimligi ham so‘roq ostida qolmoqda. Xalqaro qonun qoidalar emas, balki katta o‘yinchilarning manfaatlarini birinchi o‘ringa chiqmoqda. Shu asnoda inson huquqlarining toptalishi ekologik yaxlitlikka va insoniyat kelajagiga tahdid solayotgan harakatlarga ko‘z yumib kelinmoqda. Bu jarayonlar shuni anglatmoqdaki, xalqaro hamjamiyat istibolli, barqaror kelajakni ta’minlash uchun o‘zini isloh qilishi kerak .

Xalqaro boshqaruv islohoti o‘ziga bir qancha maqsad va vazifalarni qamrab olishi zarur. Birinchi navbatda, siyosiy institutlarning har bir vakiliga teng huquq va imkoniyatlarni berish lozim. Yani masalalarni hal qilishni faqatgina katta davlatlar zimmasiga berib qo‘ymasdan boshqa kichik davlatlarga ham o‘z manfaatlarini himoya qilishlari uchun imkoniyat berishlari kerak. Shu asnoda siyosiy jihatdan tasiri kichik

bo‘lgan davlatlarning xalqaro boshqaruvdan chetda qolib ketmasligini va ularning manfaatlarining buzilmasligini taminlashimiz mumkin . Islohotlarning keyingi asosiy jihati esa bu xalqaro institutlarning keng qamrovliligi va kollektivliligi bo‘lishi lozim . Hozirgi vaqtda dolzarb masalalar qamrov jihatidan ma’lum bir mintaqa yoki hududga emas balki butun xalqaro hamjamiyatga aloqadordir. Bu masalalarga yechim topishda global institutlarning har bir a’zosi o‘z faolligini ko‘rshatishi, hamda xalqaro institutlar, ularning faoliyatini davlat chegaralari to‘xtatmasligi kerak . Yani xalqaro darajadagi hamkorlikning xalqaro huquq asosidagi harakati kuchli bo‘lishi lozim. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va shunga katta tashkilotlarning samaradorligini oshirish va ularning bugungi kunda ro‘y berayotgan jarayonlarni hal qilishdagi o‘rnini ko‘tarish uchun ular chiqaradigan qarorlarning majburiyiligini ta’minlash ham ularning faoliyatini isloh qilishning bir yo‘li sifatida qaraladi . Chunki bugungi kunda rostdan ham BMT tomonidan chiqarilayotgan rezolyutsiya yoki qarorlar dolzarb masalalarni yechishda yetarli darajada majburiy kuchga ega emasligi, ularning samaradorligini tushurmoqda va o‘z navbatida bu masalalarning yechim top masligiga olib kelmoqda. Albatta xalqaro tashkilotlar, boshqaruv tartibi islohtlari juda katta mavzular va ularni amalga oshirish uchun malum bir vaqt oralig‘i kerak bo‘ladi . Lekin aytib o‘tilgan jihatlarga etibor berilsa va bu islohotlarni amalga oshirish uchun kollektiv hamkorlik yo‘lga qo‘yilsa, ko‘zlangan maqsadlarga erishish ancha oson bo‘ladi .

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dunyo tartiboti, Henry Kissinger
2. The Princeton Encyclopedia of Self-Determination, Richard Falk
3. TEDxTalks [ted.com/watch/tedx-talks](https://www.tedx.com/watch/tedx-talks)
4. Diplomatik terminlar izohli lug‘ati, Isroil Shamsimuxammedov
5. <https://www.brookings.edu/articles/reform-of-global-governance-priorities-for-action/>
6. Dunyo yanada odil bo‘lishi mumkin, Rajap Tayyip Erdo‘g‘an
7. Global Governance Survey 2023, STIMSON